

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARI MATNIDA IFODALANGAN OTLARNING LUG'AVIY-MA'NOVIY GURUHLARI

Termiz davlat universiteti talabasi
Xursanova Mahliyo Sunnatulla qizi
Ilmiyrahbar. D.A.Ergasheva

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “O’g’ri” hikoyasi matnida qo’llanilgan otlar aynan ot so’z turkumining lug’aviy-ma’noviy guruhlari jihatidan tahlil qilingan. Ot so’z turkumiga oid so’zlar atoqli va turdosh ot, muayyan va mavhum otlarning lug’aviy-ma’noviy to’dalari bo’yicha tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *ot so’z turkumi, atoqli ot, turdosh ot, muayyan ot, mavhum ot, lug’aviy-ma’noviy to’da, Abdulla Qahhor, “O’g’ri” hikoyasi.*

Abstract: *In thir article “Thief” by Abdulla Qahhor the nouns used in the text of the story were analyzed in terms of the lexical-semantic groups of nouns. The words related to the word family of nouns were analyzed according to the lexical-semantic groups of nouns and nouns, specific and abstract nouns.*

Key words: *noun phrase, proper noun, relative noun, specific noun, abstract noun, lexical-semantic group, Abdulla Qahhor, “Thief” story.*

Bizga ma’lumki, ot so’z turkumi kim, nima, qayer so’roqlariga javob bo’lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birlidir. Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash – ot turkumining umumiy grammatik ma’nosi. Bunda predmet tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega. Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a’zosiga ta’sir etuvchi narsa predmet deyiladi. Grammatikada esa u keng ma’noda tushuniladi, “mavjudlik” mohiyatiga ega deb qaraladi.

Otni ma’no jihatidan turlicha tasnif qilish mumkin. Ot quyidagi quyidagi xususiyatiga ko’ra tasnif qilinadi:

1. Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko’ra.
2. Kim yoki nima so’roqlariga javob bo’lishiga ko’ra.
3. Sanalish-sanalmasligiga ko’ra.

Ot borliqdagi bir turdagi predmetdan birining yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko’ra atoqli va turdosh otga bo’linadi.

Atoqli ot bir xil predmet yoki hodisaning birini ajratib ko’rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nom. U quyidagi lug’aviy mavzuviy to’daga ega:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: [Ikrom]; [Jumayev]; [Imomzoda].
2. Geografik nom: [O’zbekiston], [Dehqonobod], [Hisor].
3. Tashkilot, muassasa, korxonona nom: [Qarshi universiteti], [“Nasaf ziyosi” jurnali].
4. Samoviy yoritqichlar nomi: [Mushtariy], [Zuhro], [Yupiter].

5. Tarixiy hdisa nomi: [Mustaqillik kuni], [Loy jangi], [Boston choyxo'rligi].
6. Hayvon nomi: [Boychibor], [Brendi], [Yo'lbars].
7. Mahsulot nomi: [Siltama] (go'shtli ovqat), [Qoraqum] (shokolad).
8. Ilohiy tushuncha ifodalovchi nomlar: [Alloh], [Do'zax], [Iso], [Buroq].

Atoqli ot matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat kontekstda reallashadi.

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi ot turdosh ot deyiladi. Turdosh o tot turkumiga kirgan so'zning asosiy qismini tashkil etadi. Turdosh otda predmetlilik va belgilik xususiyati yaxlitlashgan holda mavjud bo'ladi. Chunki har qanday narsa – belgi-xususiyat majmui.

Turdosh ot ifodalagan tushunchaning xarakteriga ko'ra:

- a) muayyan ot;
- b) mavhum otlarga bo'linadi.

Sezgi a'zosi bilan sezish mumkin bo'lgan predmetni atovchi ot – muayyan ot. Muayyan otni bevosita sanash mumkin.

Muayyan ot quyidagi LMTga ega:

1. Modda nomi: [oltin], [kumush], [suv].
2. Shaxs tavsifi nomi: [yigit], [o'zbek], [kasal], [ota], [ona].
3. Buyum nomi: [qalam], [cho'mich], [sholcha].
4. O'simlik nomi: [daraxt], [buta], [jiyda], [ildiz].
5. O'rin-joy nomi: [qishloq], [shahar], [sahro], [adir].
6. Miqdor nomi: [misqol], [tonna], [chaqirim].
7. Tashkilot va muassasa nomlari: [maktab], [idora], [do'kon].
8. Vaqtt-payt nomi: [kun], [fasl], [tong], [kecha].

Bu har bir LMT o'z ichida bir necha lug'aviy-ma'noviy guruh (LMG) ga bo'linib ketadi. Mavhum ot turli narsada mavjud bo'lgan bir xil yoki o'xshash sifatni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, [olma], [qovun], [shakar], [qand] otining muhim sifat belgisi "shirinlik" bo'lsa, [shirinlik] mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo'lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi.

Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini tahlil qilish barobarida e'tiborimizni hikoyada uchragan mustaqil so'z turkumlaridan ot so'z turkumiga oid so'zlarga qaratamiz. Hikoya sarlavhasidagi so'z ham, ya'ni "O'g'ri" so'zi muayyan otning lug'aviy-ma'noviy guruhlaridan shaxs tavsifi nomi ma'nosida kelgan. Hikoyada uchragan ot turkumiga oid bir necha so'zlar tahliliga o'tsak.

-Otning o'limi, itning bayrami: ot, it-hayvon nomi, zoonim. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi: kampir – turdosh ot, shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG; xamir-mahsulot nomi; ho'kiz-zoonim; tong-muayyan ot, vaqt-payt nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan...; og'il, ko'cha-muayyan ot, o'rin-joy nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kiz yo'qolmasin; dehqon-shaxsni kasb jihatidan tasniflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi: Qobil-atoqli ot, kishilarning ismi (famiyasi, taxallusi), antroponim; bobo-muayyan ot, shaxsni qarindoshlik jihatidan tasniflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Qobil boboning qo'shnisi-burunsiz ellikboshi kirdi: qo'shni-muayyan ot, shaxsni qarindoshlik jihatidan tasniflovchi LMG; ellikboshi-muayyan ot, shaxsni kasb jihatidan tasniflovchi LMG; burunsiz ellikboshi-atoqli ot, kishilarning laqabi (taxallusi). [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Chol yig'lab yubordi: chol-muayyan ot, shaxs tavsifi nomi (yosh jihatidan tasniflovchi). [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa topiladi: oq poshsho-atoqli ot, kishilarning taxallusi (laqabi). [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

-Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi: ellikboshi, amin-muayyan ot, shaxsni kasb jihatdan tasniflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 292]

-Men beto'xtov pristavga xabar beraman: pristav-muayyan ot, shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 292]

-Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir "duoning zo'ri bilan qulf ochadigan" azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi: hafta-turdosh ot, xrionim; qulf, qop, yelpishtovoq, kalava, ip - turdosh ot, narsa-buyum oti; jo'xori, jiyda-turdosh ot, mahsulot nomi; azayimxon-muayyan ot, shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 292]

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi: tovuq-turdosh ot, hayvon nomi; qo'ni-qo'shni, yor-birodar-yasalishi jihatidan juft ot, muayyan ot, shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi: tilmoch-muayyan ot, shaxs tavsifi nomi, tortiq-turdosh ot, narsa-buyum nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan: arbob-muayyan ot, shaxs tavsifi nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi: og'il-turdosh ot, toponim, umid-mavhum ot. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

Uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslash-bahslash tarqaldi: bozor-muayyan ot, tashkilot yoki muassasa nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi: mushuk-turdosh ot, hayvon nomi (zoonim), oftob-samoviy jism nomlari (astronim). [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 291]

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'ldi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi: kechqurun-muayyan ot, vaqt-payt nomi; qoshiq-muayyan ot, buyum nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 292]

Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi: kun-muayyan ot, vaqt-payt nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 292]

“Beto'xtov hokimga xabar beraman” demasdan, “aminga bor”, deb qo'ya qoldi: hokim-muayyan ot, shaxs tavsifi nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam: avliyo-muayyan ot, shaxs tavsifi nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi...: ko'nchilik - faoliyat-jarayon oti; charm, kavush-muayyan ot, narsa-buyum nomi; bozor-muayyan ot, tashkilot yoki muassasa nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

-Ey, yosh bolamisiz!: yosh, bola – muayyan ot, shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin: qaynata – muayyan ot, shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi: Egamberdi-atoqli ot, kishining ismi (familiyasi, taxallusi); paxtafurush – muayyan ot, shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 29]

Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi: kuz – muayyan ot, vaqt-payt (fasl) nomi. [A.Qahhor, Hikoyalar to'plami, 293]

Biz bilamizki, narsa-buyum, shaxslarning nomi, atamasi bo'lgan so'z turkumi ot deyiladi. Xuddi shu ta'rif kabi hikoya narsa- buyum nomiga nisbatan shaxs nomi ko'proq uchragan. Va tahlilda shaxs nomining o'zini ham ikki yo'nalishda tasnifladik: biri turdosh ot bo'yicha, yana biri esa atoqli ot bo'yicha. Ot yasaliş xususiyatiga ega. Masalan, hikoyada kompozitsiya usulida yasalgan juft otga duch kelamiz: qo'ni-qo'shni so'zi qismlaridan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan juft otdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchi bu hikoyasida o'zgarlar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan zolim amaldorlar obrazini tasvirlaydi. Abdulla Qahhor hikoyalarida so'zni o'z o'rnida va tugal qilib foylanadi. Shu sababli ham hikoyalarining tili ravon, sodda, aniq va qisqa, ifoda lo'nda. Hikoyalari garchi katta hajmni tashkil qilmasa-da, qisqa ifodada bir olam mazmunni ifodalaydi, yozuvchi hammasi ochiq-oydin oshkora etmaydi, ammo kitobxon hikoyani o'qish barobarida und anima demoqchiligini anglab boraveradi, ya'ni xalq ta'biri bilan aytganda “kosa tagida nimkosa”ni topishni kitobxonga yuklaydi. Hajm qisqa, ammo undan chiqadigan mohiyat katta. Bu qisqalik, aniqlik, ravonlik,

soddalik yozuvchi mahoratidan, ya'ni yozuvchining so'zni qay yo'sinda qo'llay bilish qobiliyatidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Qahhor. – Asarlar: 5 jildlik. Redkol.: O'.Umarbekov, Said Ahmad, E.A'zamov va boshqa; Nashrga tayyorlovchi Q.Qahhorova. 1-j. Sarob: Roman. Hikoyalar. So'zboshi muallifi O.Sharafiddinov. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. 336 b. (291 – 293 – betlar).

2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2009. 416 b.

3. B.Mengliyev. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Tafakkur bo'stoni, 2018.

4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 21819297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)

9. Китаева, Н. Х. (2023). ПНЕВМОНИЯ, ВЫЗВАННАЯ АТИПИЧНЫМИ ВОЗБУДИТЕЛЯМИ. О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(23), 109-114.

10. Китаева, Н. (2023). ВНЕБОЛЬНИЧНАЯ ПНЕВМОНИЯ. International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research, 3(10), 66-70.

11. Khamidovna, N. K. (2023). BRONCHO-OBSTRUCTIVE SYNDROME IN THE PRACTICE OF A THERAPIST. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(18), 192-194.